

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar.....	469
	TILSHUNOSLIK
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni.....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida.....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi.....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari.....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini.....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida.....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili.....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages.....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics.....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili.....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



UO'K: 81'42

**FILOLOG MUTAXASSISLARDA TERMINOLOGIK KOMPETENTLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI****THE SIGNIFICANCE OF DEVELOPING TERMINOLOGICAL COMPETENCE IN  
PHILOLOGY SPECIALISTS****ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У  
СПЕЦИАЛИСТОВ-ФИЛОЛОГОВ**

**Hojiyeva Minovvarxon Akramovna**   
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqola bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashda terminologik kompetentlikning o'рни va ahamiyati mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda kompetensiya, uning mazmun-mohiyati, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik jarayonda kasbiy kompetentlikning o'рни, terminologik kompetentlik kabi terminlarining qo'llanishi xususida batafsil ma'lumot berilgan.

**Аннотация**

Данная статья посвящена теме роли и значения терминологической компетентности в подготовке будущих специалистов-филологов и содержит подробную информацию о применении таких терминов, как компетентность, ее содержание, компетентность, профессиональная компетентность, роль профессиональной компетентности в педагогическом процессе, терминологическая компетентность.

**Abstract**

This article is devoted to the topic of the role and significance of terminological competence in the training of future philologists and contains detailed information on the use of terms such as competence, its content, competence, professional competence, the role of professional competence in the pedagogical process, terminological competence.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, terminologik kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim.

**Ключевые слова:** компетентность, компетенция, профессиональная компетентность, терминологическая компетентность, знание, умение, квалификация, образование.

**Key words:** competence, professional competence, terminological competence, knowledge, skill, qualification, education.

**KIRISH**

Hozirgi davrda ilm-fan, texnika va boshqa sohalarning rivojlanishida, yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislarning kasbiy layoqatini shakllanishida, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida kompetentlikka yondashilgan ta'limning muhim o'рни bor. Kasbiy kompetentlikka ega o'qituvchi o'z sohasining mohir bilimdoni, yuzaga kelgan muammolarning oqilona yechimini topishga qodir, o'z ustida doimiy izlanishda, o'z sohasiga oid yangiliklar yarata oladigan, shogirdlari qalbidan o'rin oladigan, kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lgan mutaxassis tushuniladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

XX asrning 50-60 yillarida tilshunoslikda kompetensiya termini qo'llanila boshlangan. Kompetensiya tushunchasi lotincha "competentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qonunan ega", "haqdor" degan ma'noni anglatadi, lug'aviy jihatdan "qobiliyat", "ko'nikma", "iqtidor" tushunchalarini ifodalaydi [1, 91].

Kompetensiya – sub'yektning maqsadni qo'yish hamda unga erishishi uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub'yektning muayyan faoliyat ob'yekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir [2, 8].

## TILSHUNOSLIK

Pedagog olimlar N.Sh.Turdiyev, Yu.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.Sh.Temirovlar “kompetentlik”, kompetensiya” tushunchalarini quyidagicha tavsiflaydi: bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi; shaxsnining uquvi, xislatlari, fazilatlarini; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi; muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati; shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tadbiiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emosional iroda kuchi” [3, 160]. Demak, kompetensiya – o'quvchi fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni hal qilishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishi hisoblanadi.

Kompetensiyaviy ta'lim talabalarning faqat bilimlarni egallashni emas, balki ularni shaxs sifatida rivojlantirish, o'qib-o'rganayotgan bilimlarini anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni ta'minlaydi. Bo'lajak mutaxassis – o'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, nutqning to'g'riligi, aniqligi, ifodaviyligi, nutqning sofligi, uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi, nutqning ravonligi va boyligi ham kasbiy kompetentlikning asosiy talablaridandir. Kasbiy kompetentlikning asosini terminologik kompetensiya hisoblanadi.

Terminologik kompetentlik – bo'lajak mutaxassisning o'rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash, mutaxassislikka oid terminlarni tushunish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish, terminlarning muqobillari, variantlari, sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, terminlarning mazmun-mohiyatini mukammal bilish, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni terminlarni maqsadli ravishda amaliy qo'llash layoqatini shakllantirishdan iborat. Bo'lajak mutaxassis o'rganayotgan faniga oid terminlarni o'zlashtirmasdan turib, o'z fanining mohir bilimdoni, fanining ustasi bo'la olmaydi. Terminologik kompetensiyaning asosini fanga oid terminlarni puxta o'zlashtirish, terminlarni tushunish, ularning kelib chiqishini, muqobillarini, sinonimlarini anglash, terminlarni kelgusidagi ish faoliyatida o'rinli foydalana olish achiyapkabi masalalar tashkil etadi.

Ma'lumki, jamiyatning taraqqiy etishi, ilm-fan, madaniyat, texnika va boshqa sohalarining rivojlanishi tilning lug'at tarkibiga ta'sir qiladi. Tilning lug'at tizimi yangi so'z va terminlar bilan boyib boradi. Termin bilan so'z tubdan bir-biri bilan farq qilmaydi. Termin ham so'z, faqat ma'lum bir sohaga, fan yoki texnikaga oid so'z hisoblanadi. Ular umumiste'moldagi so'zdan farq qiladi, chunki uni olimlar, ma'lum soha vakillari qo'llaydilar, ongli ravishda fanga olib kiradilar. Ilm-fan va texnika sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan termin masalasiga A.A.Reformatskiy: “Termin so'z hisoblanib, ular o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi, terminlar fan, texnika, iqtisod, siyosat va diplomatiya sohalaridagi bir ma'noli, aniq so'zlardir. Termin “shunchaki so'z” emas, balki u “noodatiy” yoki “yangi so'z” bo'lsin, uni “rasonallashtirish” va hatto “o'ylab topish” mumkin bo'lsa ham, u eng avvalo, so'zdir”, - deya ta'riflaydi [4,110].

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik bo'lib, terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Termin terminologik lug'atlar yaratishning muhim manbaidir. Terminlar jamiyatning, umuman, insonlarning kasbiy faoliyatidagi asosiy vositadir. Terminlar ilm-fan, texnika sohalarining rivojlanishi va o'sishi bilan shakllanib, takomillashib boradi.

“Terminologik lug'at tarkibining rivojlanishi jarayonida so'z yaratish, so'z tanlash, birinchidan, tilning ichki va tashqi imkoniyatini aniq farqlash, to'g'ri tushunish, ikkinchidan, tilning taraqqiyot qonuniyatlariga, uning talablariga asoslanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Uchinchidan, til lug'at tarkibining, ayniqsa, terminologiyasining rivojlanishida tashqi manba ham muhim rol o'ynashini hamma vaqt e'tiborda tutish shart” [5,10-11].

Terminologik lug'at – har bir soha uchun zarur bo'lgan, maxsus lug'at sanaladi. Terminologik yoki maxsus lug'at deganda, ensiklopedik lug'atlarning biron-bir ixtisoslik terminlarini – alohida bilim sohasi va fan-texnika tarmoqlaridagi tushuncha va predmetlarning nomlarini qamrab oluvchi, ularni tushuntirib, izohlab beruvchi turi tushuniladi [6, 11]. Demak, terminologik lug'at bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda yondosh sohalarini terminlarini qamrab olishi mumkin. Terminologik lug'at bir tilli bo'lishi, ya'ni bir tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanadi, uning izohi shu tilda beriladi yoki ikki, uch va ko'p tilli bo'lishi mumkin.

Tilshunoslik terminologiyasiga quyidagi terminologik lug'atlarni misol qilib keltirish mumkin: A.Hojiyev, L.Reshetova. O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T., 1980. 56 bet; A.Hojiyev. lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T., 1985. 144 bet; T.Z. Mirsoatova, M.Sattorov. Nemischa-o'zbekcha grammatik atamalarning izohli lug'ati. T., 1990. 152 bet; A.Hojiyev. Tilshunoslik atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati. T., 1993. 48 bet; V.A. Fyodorov, G'.A.Aliyev. Rus-o'zbek-ingliz-nemis tillarida so'z boshqaruviga doir lug'at-spravochnik. T., 1997. 296 bet; A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., 2002. 168 bet.

Adabiyotshunoslik terminologiyasiga oid bir necha terminologik lug'atlar nashr etilgan: H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S. Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T., 1967. 300 bet (2-nashr: T., 1970. 288 bet); N.T.Hotamov. Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at. T., 1969.216 bet; N.T.Hotamov, B.I.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., 1979. 365 bet (2-nashr:T., 1983.376 bet); A.Hojiahmedov. O'zbek aruz lug'ati. T., 1998. 224 bet.

### XULOSA

Xullas, terminologik lug'atlar bo'lajak filolog-mutaxassislarining terminologik kompetentligini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Chunki bo'lajak mutaxassis fanga oid terminlarni puxta o'zlashtirish, kasbiy faoliyatida ulardan unumli foydalanish, mutaxassislikka oid terminlarni tushunish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish, terminlarning muqobillari, variantlari, sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, terminlarning mazmun-mohiyatini mukammal bilish, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni terminlarni maqsadli ravishda amaliy qo'llash layoqatini shakllantirish terminologik kompetentlikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Buning uchun esa har bir talaba-yosh mutaxassisning ish stolida terminologik lug'atlarning bo'lishi zarur. Terminologiya bilan bog'liq barcha muammolarni ilmiy hal etish, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid terminologik lug'atlarni yaratish maqsadga muvofiq.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1988. – С.91.
2. Иноят У., Ходжаев Б. Умумтаълимий компетенцияларни лойиҳалаштиришнинг концептуал асослари // Халқ таълими илмий-методик журналари, 2016. – № 2. – Б.8.
3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ж. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. Т.: Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон республикаси педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти. 2015. – Б. 160.
4. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка// Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968, – С. 110.
5. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент:1996, – Б. 10-11.
6. Гринев С.В. Введение в терминологическую лексикографию (учебное пособие). М., 1986. – С.11.
7. Hojiyeva, Minovvarxon. "MUSTAQIL TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK FILOLOG MUTAXASSISLARINING TERMINOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH." *Farg'ona davlat universiteti* 1 (2023): 103-103.
8. Hojiyeva, Minovvarxon. "РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ–ФИЛОЛОГОВ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali* 1 (2023): 497-501.
9. Hojiyeva, M. "THE ROLE OF INDEPENDENT STUDYING IN THE DEVELOPMENT OF TERMINOLOGICAL COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS." *Science and innovation* 2.B1 (2023): 298-303.
10. Hojiyeva, Minovvarxon. "TERMINOLOGIK KOMPETENTLIK–BO 'LAJAK FILOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING ASOSI SIFATIDA." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 35-35